

Qoriyev Mirzoxid
Tabiiy fanlar kafedrası dotsenti, g.f.f.d. (PhD)
Namangan davlat pedagogika instituti.
Marifova Muxtaram
Geografiya yo'nalishi talabasi.
Namangan davlat pedagogika instituti

ZAMONAVIY GEOGRAFIYA XONASI: TALABALARNING FAZOVIY TAFAKKURI VA AMALIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy geografiya xonasini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari hamda uning talabalarning fazoviy tafakkuri va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda geografiya ta'limida o'quv ko'rgazmali vositalar (xaritalar, globuslar, diagrammalar, modellar va tabiiy namunalarning) didaktik imkoniyatlari va ularning o'quv jarayonidagi samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, multimedia vositalari, raqamli atlaslar hamda onlayn geografik platformalarning talabalarda fazoviy tasavvur, mantiqiy tafakkur va tahliliy fikrlashni shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Bundan tashqari, maqolada geografik asboblari (kompas, barometr, termometr, anemometr va boshqalar) bilan ishlash orqali talabalarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, kuzatuvchanlikni oshirish, tahlil qilish va xulosa chiqarish malakalarini shakllantirishning metodik asoslari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: geografiya ta'limi, geografiya xonasi, ko'rgazmali vositalar, xarita, globus, multimedia vositalari, raqamli atlaslar, geografik asboblari, fazoviy tafakkur, tahliliy fikrlash.

Koriyev Mirzohid
Associate Professor of the Department of Natural Sciences,
Doctor of Philosophy
Namangan State Pedagogical Institute.
Marifova Mukhtaram
Student of Geography.
Namangan State Pedagogical Institute

MODERN GEOGRAPHY ROOM: AS A FACTOR IN DEVELOPING STUDENTS' SPATIAL THINKING AND PRACTICAL SKILLS

This article analyzes the theoretical and practical aspects of organizing a modern geography classroom and its role in developing students' spatial thinking and practical skills. The study highlights the didactic potential of instructional visual aids used in geography education, including maps, globes, diagrams, models, and natural specimens, as well as their effectiveness in the teaching and

learning process. Furthermore, the significance of multimedia tools, digital atlases, and online geographic platforms in fostering students' spatial perception, logical reasoning, and analytical thinking is substantiated. In addition, the paper reveals the methodological foundations for developing students' practical skills through the use of geographic instruments (such as compass, barometer, thermometer, anemometer, etc.), enhancing their observational abilities, and improving their capacity for analysis and drawing conclusions.

Keywords: geography education, geography room, visual teaching aids, maps, globe, multimedia tools, digital atlases, geographic instruments, spatial thinking, analytical thinking

I. KIRISH. Hozirgi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlar tarkibiga kiruvchi geografiya ta'limi talabalarda fazoviy tafakkur, tahliliy fikrlash, tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni anglash kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan geografiya fanini samarali o'qitish nafaqat nazariy bilimlarni yetkazish, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida, xususan, kompetensiyaviy yondashuv, STEAM ta'limi hamda raqamli pedagogika doirasida o'quv jarayonini tashkil etishda o'quv-moddiy bazaning o'rnini tobora ortib bormoqda. Geografiya xonasi esa ushbu jarayonning markaziy elementi sifatida nafaqat o'quv faoliyati olib boriladigan muhit, balki talabalarning bilish faoliyatini rag'batlantiruvchi, ularning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantiruvchi didaktik makon hisoblanadi. Shu sababli geografiya xonasini zamonaviy talablar asosida maqbul jihozlash, uni interfaol va innovatsion vositalar bilan boyitish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Mazkur muammo bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, geografiya ta'limida ko'rgazmali vositalar va texnik jihozlardan samarali foydalanish talabalarning bilimni o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, an'anaviy o'quv vositalari — xaritalar, globuslar, diagrammalar hamda modellar talabalarda fazoviy tasavvur va mantiqiy tafakkurni shakllantirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilgan. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar, jumladan, interfaol doskalar, geografik axborot tizimlari (GIS), virtual ta'lim texnologiyalarining ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati alohida ta'kidlanmoqda. Biroq mavjud tadqiqotlar, asosan, alohida o'quv vositalarining samaradorligini o'rganishga qaratilgan bo'lib, geografiya xonasini kompleks tizim sifatida tashkil etish, ya'ni an'anaviy va innovatsion vositalarning integratsiyalashgan holda qo'llanilishi orqali talabalarning fazoviy tafakkuri va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola geografiya xonasini zamonaviy didaktik va texnologik talablar asosida tashkil etish hamda

uning talabalar bilimini oshirishdagi kompleks ta'sirini o'rganishga qaratilganligi bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi — zamonaviy geografiya xonasini jihozlashning nazariy-metodik asoslarini tahlil qilish va uning talabalarining fazoviy tafakkuri hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rnini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish jarayonida ta'limda qo'llanilayotgan an'anaviy va innovatsion vositalarning o'zaro uyg'unligi, ularning didaktik imkoniyatlari hamda o'quv jarayoniga ta'siri tizimli yondashuv asosida o'rganiladi.

II. ADABIYOTLAR TAHLILI. Zamonaviy geografiya xonasining talabalarining fazoviy tafakkuri hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini o'rganish jarayonida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlari tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu yo'nalish bugungi kunda pedagogika va geografiya didaktikasining muhim ilmiy muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Jumladan, xorijlik taniqli olimlardan biri bo'lgan David Lambert geografiya ta'limining asosiy vazifasi talabalarda "geografik fikrlash"ni shakllantirishdan iborat ekanligini ta'kidlab, bunda o'quv muhitining, xususan, sinf xonasining didaktik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi muhim omil ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, geografiya xonasi faqat bilim beruvchi makon emas, balki talabalarining fazoviy tafakkurini rivojlantiruvchi interfaol muhitdir [1].

Shuningdek, Michael Solem tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda geografiya ta'limida ko'rgazmali vositalar va xaritalardan foydalanish talabalarining tahliliy fikrlash darajasini oshirishi ilmiy jihatdan asoslangan. Muallif xaritalar bilan ishlash ko'nikmalari fazoviy tafakkurning asosiy komponenti ekanligini alohida ta'kidlaydi [2].

Sarah Bednarz esa geografik axborot tizimlari (GIS) va raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish talabalarining murakkab geografik jarayonlarni tushunish darajasini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatib beradi. Uning tadqiqotlarida GIS asosidagi ta'lim muhitining samaradorligi empirik ma'lumotlar bilan isbotlangan [3].

Boshqa bir tadqiqotchi Joseph Kerski raqamli atlaslar va interfaol platformalar talabalarda mustaqil tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita ekanligini qayd etadi. Unga ko'ra, zamonaviy geografiya xonasi raqamli resurslar bilan boyitilgan bo'lishi zarur [4].

Margaret Roberts o'z tadqiqotlarida geografiya ta'limida vizual materiallarning (diagramma, model, xarita) didaktik ahamiyatini ochib berib, ular orqali talabalarining abstrakt tushunchalarni anglash darajasi oshishini ta'kidlaydi [5].

Daniel Edelson tomonidan ilgari surilgan "learning-for-use" modeli esa talabalarining bilimni amaliy faoliyat bilan bog'lash zarurligini asoslaydi. Bu yondashuv geografiya xonasida amaliy mashg'ulotlarning muhimligini ko'rsatadi [6].

Roger Downs va David Stea tadqiqotlarida fazoviy tafakkur insonning atrof-muhitni idrok etish va tahlil qilish qobiliyatining asosi sifatida talqin etiladi.

Ularning fikricha, vizual va fazoviy materiallardan foydalanish ushbu tafakkurni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi [7].

Xalqaro ilmiy nashrlarda chop etilgan boshqa tadqiqotlarda ham zamonaviy ta'lim muhitining samaradorligi keng yoritilgan. Masalan, John Hattie ta'lim samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilib, o'quv muhitining sifati talabalarning natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [8]. Lev Vygotskyning ijtimoiy-konstruktivistik yondashuvi esa o'quv muhitining interfaol bo'lishi bilimlarni samarali o'zlashtirishga xizmat qilishini nazariy jihatdan asoslaydi [9]. Jerome Bruner esa o'quv jarayonida vizual va amaliy faoliyatning ahamiyatini ta'kidlab, bilimlarni bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligini ko'rsatadi [10].

Mahalliy tadqiqotchilar orasida geografiya ta'limining metodik asoslarini o'rgangan olimlar ham mazkur masalaga alohida e'tibor qaratgan. Jumladan, B.X.Xo'jayev geografiya fanini o'qitishda ko'rgazmali va jonli vositalardan samarali foydalanish talabalarning bilimni chuqur o'zlashtirishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi [11, 12, 13]. R.A.Mamatqulov esa geografiya xonasini zamonaviy jihozlash talabalarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim omil ekanligini qayd etadi [14]. Shuningdek, N.O.Abdullayeva o'z tadqiqotlarida interfaol metodlar va multimedia vositalarining qo'llanilishi talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishini ilmiy asoslab bergan [15, 16]. Sh.S.Sharipov ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarning kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [17].

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy geografiya xonasini tashkil etish nafaqat o'quv vositalarini yangilash, balki ularni integratsiyalashgan holda qo'llash orqali talabalarning fazoviy tafakkuri va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar asosan alohida vositalar samaradorligini o'rganishga qaratilgan bo'lib, geografiya xonasini kompleks didaktik tizim sifatida o'rganish yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilab, geografiya xonasini integrativ yondashuv asosida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

III. TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqot zamonaviy geografiya xonasining talabalarning fazoviy tafakkuri hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda tizimli, kompleks va integrativ yondashuv asosida nazariy hamda empirik tadqiqot metodlari majmuasidan foydalanildi.

Pedagogik kuzatuv metodi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv metodi asosiy empirik usullardan biri sifatida qo'llanildi. Kuzatuvlar geografiya fanidan tashkil etilgan real o'quv mashg'ulotlari jarayonida olib borilib, talabalarning bilish faoliyati va amaliy harakatlari tizimli ravishda monitoring qilindi.

Taqqoslash (komparativ) metodi. Mazkur tadqiqotda taqqoslash (komparativ) metodi muhim tahliliy vosita sifatida qo'llanildi. Ushbu metod yordamida an'anaviy jihozlangan geografiya xonalari va zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan geografiya xonalarining didaktik imkoniyatlari hamda turli oliy

ta'lim muassasalari (institut va universitetlar) geografiya xonalarining moddiy-texnik ta'minoti holati o'zaro taqqoslandi va tahlil qilindi. Komparativ tahlil natijalari zamonaviy geografiya xonasining talabalarda fazoviy tafakkur va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda an'anaviy yondashuvlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Kompleks (integrativ) yondashuv. Tadqiqotda qo'llanilgan barcha metodlar o'zaro uzviy bog'liqlikda va integratsiyalashgan holda qo'llanildi. Bu yondashuv geografiya xonasini alohida elementlar yig'indisi sifatida emas, balki yaxlit didaktik tizim sifatida o'rganish imkonini yaratdi.

Kompleks yondashuv asosida an'anaviy va innovatsion o'quv vositalarining uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishi talabalarning bilim olish samaradorligini oshirishi, ularning fazoviy tafakkuri va amaliy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

IV. NATIJALAR. Mazkur tadqiqot doirasida zamonaviy geografiya xonasini tashkil etish va undan samarali foydalanishning talabalarning fazoviy tafakkuri hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'siri kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari pedagogik kuzatuv, taqqoslash va analitik metodlar asosida umumlashtirildi.

1. Zamonaviy geografiya xonasining didaktik samaradorligi bo'yicha tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan geografiya xonasida tashkil etilgan darslar talabalarning bilimni o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, an'anaviy o'qitish shakllariga nisbatan:

- talabalarning darsdagi faolligi ortadi;
- mavzuni tushunish va idrok etish darajasi yaxshilanadi;
- mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlanadi.

Pedagogik kuzatuv natijalari zamonaviy jihozlangan muhitda talabalarning dars jarayonida faol ishtirok etishi va o'z fikrlarini erkin bayon etish darajasi oshganligini ko'rsatmoqdi.

2. Fazoviy tafakkurning rivojlanish ko'rsatkichlariga ko'ra, talabalarning xaritalar, globuslar va diagrammalar bilan ishlash jarayonini kengaytirish va faolligini oshirish natijasida:

- talabalarni xaritalarni tahlil qilish va undan xulosa chiqarish ko'nikmalari sezilarli darajada yaxshilangan;
- fazoviy tasavvur qilish (hududiy bog'liqliklarni anglash) darajasi oshgan;
- murakkab geografik jarayonlarni tushunish qobiliyati rivojlangan.

Ayniqsa, raqamli atlaslar va GIS texnologiyalaridan foydalanish talabalarning fazoviy tafakkurini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

3. Amaliy ko'nikmalarining shakllanishi. Geografik asboblari (kompas, barometr, termometr va boshqalar) bilan ishlash orqali talabalarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni ham alohida tahlil qilindi (1-rasm). Natijalarga ko'ra:

- talabalarning kuzatuvchanlik darajasi oshdi;
- tajriba va amaliy mashgʻulotlarga qiziqish kuchaydi;
- oʻlchash, tahlil qilish va xulosa chiqarish malakalari shakllandi.

Bu esa nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan uygʻunlashuvini taʼminlab, talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qildi.



1-rasm. Namangan davlat pedagogika instituti Geografiya yoʻnalishi talabalarini geografik asboblardan oʻlchov ishlarini amalga oshirish jarayoni

4. Taqqoslash natijalari (anʼanaviy va zamonaviy yondashuv). Komparativ tahlil natijalari shuni koʻrsatdiki, zamonaviy geografiya xonasida tashkil etilgan oʻquv jarayoni anʼanaviy sharoitga nisbatan quyidagi ustunliklarga ega:

- talabalarning geografik bilimni oʻzlashtirish darajasi yuqori boʻladi;
- dars samaradorligi va qiziqarli tashkil etilishi taʼminlanadi;
- interfaollik va mustaqil fikrlash darajasi oshadi.

Shuningdek, turli taʼlim muassasalaridagi geografiya xonalarining jihozlanish darajasini taqqoslash natijasida zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan xonalar yuqori didaktik samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida Andijon, Buxoro va Namangan davlat pedagogika institutlaridagi geografiya xonalari vizual jihatdan tahlil qilindi va ularning didaktik imkoniyatlari oʻzaro taqqoslandi.

Oʻxshash jihatlar:

- ✓ Barcha hududlardagi geografiya xonalarida globuslar, xaritalar va koʻrgazmali materiallar mavjud;

- ✓ O'quv jarayoni uchun vizual didaktik vositalardan faol foydalanish yo'lga qo'yilgan;
- ✓ Dars muhitida fazoviy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan elementlar (devor xaritalari, modellashgan obyektlar) mavjud.

Farqli jihatlar:

Andijon davlat pedagogika instituti (2-rasm):

- ✓ Sinf xonalari vizual jihatdan boy va rang-barang tashkil etilgan;
- ✓ Har bir partada globus va davlat bayroqlari joylashtirilgan bo'lib, bu geosiyosiy tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladi;
- ✓ Ko'rgazmali vositalarning ko'pligi o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi.



2-rasm. Andijon davlat pedagogika institutining geografiya xonasi

Buxoro davlat pedagogika instituti (3-rasm):

- ✓ Geografiya xonalari tizimli va konseptual yondashuv asosida jihozlangan;
- ✓ Devoriy tasvirlar (biosfera, litosfera, gidrosfera) orqali tabiiy jarayonlarning yaxlit tasviri berilgan;
- ✓ Bu esa o'quvchilarda tizimli va ekologik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.





3-rasm. Buxoro davlat pedagogika institutining geografiya xonasi

Namangan davlat pedagogika instituti (4-rasm):

- ✓ Xonalar zamonaviy va minimalistik dizayn asosida tashkil etilgan;
- ✓ Kitob javonlari, xaritalar va globuslar uyg'unligi nazariy va amaliy bilim integratsiyasini ta'minlaydi;
- ✓ O'quv muhiti tinch va tizimli o'rganishga yo'naltirilgan.



4-rasm. Namangan davlat pedagogika institutining geografiya xonasi

Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, har bir hududda geografiya xonalari o'ziga xos didaktik yondashuv asosida shakllangan bo'lib, ularning barchasi o'quvchilarning fazoviy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi, ammo jihozlanish uslubi va metodik yo'nalishida farqlar mavjud.

5. Kompleks yondashuv natijalari. Tadqiqot natijalari an'anaviy va innovatsion o'quv vositalarining integratsiyalashgan holda qo'llanilishi

talabalarning bilim olish samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini tasdiqladi. Xususan:

- vizual (xarita, globus) va raqamli (GIS, multimedia) vositalarning uyg'unligi;
- nazariy va amaliy faoliyatning integratsiyasi;
- interfaol metodlarning qo'llanilishi

talabalarning fazoviy tafakkuri, tahliliy fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Umumiy natijalar tahlili. Umumlashtirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy geografiya xonasini tashkil etish:

- talabalarning bilim darajasini oshiradi;
- ularning fazoviy tafakkurini rivojlantiradi;
- amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi;
- ta'lim samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Shu tariqa, geografiya xonasini zamonaviy didaktik va texnologik talablar asosida jihozlash o'quv jarayonining sifatini oshirishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ldi.

V. MUHOKAMA. Mazkur tadqiqot natijalari zamonaviy geografiya xonasini tashkil etish talabalarning fazoviy tafakkuri hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik omil ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularni mavjud nazariy qarashlar bilan solishtirish mazkur bo'limning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Avvalo, tadqiqot natijalari David Lambert tomonidan ilgari surilgan geografiya ta'limida "geografik fikrlash"ni shakllantirish g'oyasi bilan uyg'unlikda ekanligi kuzatildi [1]. Muallif ta'kidlaganidek, o'quv muhitining didaktik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi talabalarning fazoviy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot natijalari ham zamonaviy jihozlangan geografiya xonalari talabalarning faolligini oshirishi va bilimni chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari Michael Solem va boshqalarning xaritalar va ko'rgazmali vositalardan foydalanish fazoviy tafakkurning asosiy komponenti ekanligi haqidagi ilmiy xulosalari bilan mos keladi [2]. Mazkur ishda ham globus, xarita va diagrammalar bilan ishlash talabalarning hududiy tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ldi.

Raqamli texnologiyalar bilan bog'liq natijalar Sarah Bednarz va Joseph Kerski tadqiqotlari bilan uyg'unlikda ekanligi aniqlandi [3]. Xususan, GIS texnologiyalari va raqamli atlaslardan foydalanish talabalarning murakkab geografik jarayonlarni tushunish hamda tahlil qilish qobiliyatini oshirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ldi. Bu esa zamonaviy geografiya xonasini raqamli texnologiyalar bilan boyitish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari Daniel Edelson tomonidan ishlab chiqilgan "learning-for-use" konsepsiyasi bilan ham ilmiy jihatdan asoslanadi [6]. Tadqiqot davomida amaliy mashg'ulotlar va geografik asboblardan foydalanish talabalarning

bilimni amaliy faoliyat bilan bog‘lash ko‘nikmalarini rivojlantirganligi kuzatildi. Bu esa nazariya va amaliyot integratsiyasining muhimligini ko‘rsatadi.

Fazoviy tafakkurning shakllanishiga oid natijalar Roger Downs va David Stea tadqiqotlari bilan hamohang bo‘lib, vizual va fazoviy materiallardan foydalanish insonning atrof-muhitni idrok etish qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil ekanligi tasdiqlandi [7]. Mazkur ishda ham vizual vositalarning keng qo‘llanilishi talabalarning fazoviy tasavvurini sezilarli darajada oshirgan.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari John Hattie ning ta‘lim samaradorligiga o‘quv muhitining ta‘siri haqidagi ilmiy qarashlari bilan mos keladi. Zamonaviy jihozlangan geografiya xonalari talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshirganligi ushbu nazariyani amaliy jihatdan tasdiqlaydi [8].

Pedagogik nuqtai nazardan, natijalar Lev Vygotsky ning ijtimoiy-konstruktivistik yondashuvi bilan hamohang bo‘lib, interfaol o‘quv muhitining mavjudligi bilimlarni samarali o‘zlashtirishga xizmat qilishi aniqlandi [9]. Shuningdek, Jerome Bruner ta‘kidlaganidek, vizual va amaliy faoliyat asosida bilimlarni bosqichma-bosqich shakllantirish samarali natija beradi [10].

Mahalliy olimlar tadqiqotlari bilan solishtirganda ham olingan natijalar uyg‘unlikda ekanligi kuzatildi. Jumladan, B.X.Xo‘jayev geografiya ta‘limida ko‘rgazmali vositalarning ahamiyatini ta‘kidlagan bo‘lsa, R.A.Mamatqulov geografiya xonasini zamonaviy jihozlash talabalarning qiziqishini oshirishini qayd etadi. Tadqiqot natijalari ushbu fikrlarni amaliy jihatdan tasdiqladi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari geografiya xonalarining turli hududlarda (Andijon, Buxoro, Namangan) turlicha yondashuv asosida tashkil etilganligini ko‘rsatdi. Bu esa Sh.S.Sharipov tomonidan ilgari surilgan innovatsion yondashuvlarning moslashuvchanligi haqidagi g‘oyalarni tasdiqlaydi. Ya‘ni, geografiya xonasini tashkil etishda yagona modeldan ko‘ra, hududiy va didaktik ehtiyojlardan kelib chiqib yondashish samaraliroq hisoblanadi.

Biroq, tadqiqot jarayonida ayrim salbiy holatlar ham aniqlandi. Jumladan:

- barcha ta‘lim muassasalarida geografiya xonalari zamonaviy ta‘lim texnologiyalari bilan, shuningdek, geografik asboblardan to‘liq jihozlanmagan;
- raqamli vositalardan foydalanish darajasi o‘qituvchilarning malakasiga bog‘liq bo‘lib, bu borada ham kamchiliklar mavjud;
- ayrim hollarda an‘anaviy vositalar bilan cheklanib, zamonaviy texnologiyalarga katta qiziqish bildirilmaydi;
- ayrim ta‘lim muassasalari rahbariyatini o‘quv honalarini zamonaviy jihozlanishiga jiddiy e‘tibor qaratmaydi, zaruriy mablag‘lar ajratilmaydi.

Mazkur holatlar kelgusida geografiya xonalarini modernizatsiya qilishda kompleks yondashuvni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari zamonaviy geografiya xonasini tashkil etish faqat moddiy-texnik bazani yaxshilash bilan cheklanmasdan, balki didaktik, metodik va texnologik jihatlarning uyg‘unlashuvi asosida amalga oshirilishi lozimligini ko‘rsatadi. Bu esa talabalarning fazoviy tafakkuri va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

VI XULOSA. Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot natijalari zamonaviy geografiya xonasini tashkil etish talabalarning fazoviy tafakkuri va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim didaktik va pedagogik omil ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan kompleks yondashuv (nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv va komparativ tahlil) asosida olingan natijalar quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchiidan, geografiya xonasining zamonaviy didaktik talablarga mos holda jihozlanishi talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini oshiradi, bilimni o'zlashtirish darajasini yaxshilaydi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa o'quv muhitining sifati ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Ikkinchiidan, xaritalar, globuslar, diagrammalar hamda modellar kabi ko'rgazmali vositalardan tizimli foydalanish talabalarning fazoviy tafakkurini shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli atlaslar va GIS texnologiyalarining qo'llanilishi murakkab geografik jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Uchinchiidan, geografik asboblar bilan ishlashga asoslangan amaliy mashg'ulotlar talabalarda kuzatuvchanlik, tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi. Bu esa nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan integratsiyasini ta'minlaydi.

To'rtinchiidan, Andijon, Buxoro va Namangan davlat pedagogika institutlari geografiya xonalarining komparativ tahlili shuni ko'rsatdiki, turli hududlarda geografiya xonalari turlicha metodik yondashuv asosida tashkil etilgan bo'lsa-da, ularning barchasi talabalarning fazoviy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, jihozlanish darajasi va metodik yo'nalishdagi farqlar ta'lim samaradorligiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Beshinchiidan, an'anaviy va innovatsion o'quv vositalarining integratsiyalashgan holda qo'llanilishi eng yuqori samaradorlikni ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ldi. Bu esa geografiya xonasini yaxlit didaktik tizim sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Amaliy taklif va tavsiyalar. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

Geografiya xonalarini standartlashtirish va modernizatsiya qilish. Oliy ta'lim muassasalarida geografiya xonalarini zamonaviy didaktik talablar asosida jihozlash bo'yicha yagona metodik standartlar ishlab chiqilishi lozim.

Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish. Ta'lim jarayoniga GIS texnologiyalari, raqamli atlaslar, interfaol doskalar va virtual platformalarni joriy etish orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshirish zarur.

O'qituvchilarning malakasini oshirish. Geografiya fanidan dars beruvchi pedagoglar uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish bo'yicha muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish. O'quv rejalarda geografik asboblar bilan ishlash, tajriba va kuzatuvlarga asoslangan mashg'ulotlar hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Hududiy tajribalarni ommalashtirish. Andijon, Buxoro va Namangan davlat pedagogika institutlarida mavjud ilg'or tajribalarni o'rganish va boshqa ta'lim muassasalariga joriy etish tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Geografiya xonasini integrativ ta'lim makoniga aylantirish. Geografiya xonasini faqat dars o'tiladigan joy sifatida emas, balki ilmiy-amaliy faoliyat, loyiha ishlari va interfaol o'quv faoliyatlari amalga oshiriladigan innovatsion muhit sifatida rivojlantirish lozim.

Moddiy-texnik bazani mustahkamlash. Ta'lim muassasalarida geografiya xonalarini jihozlash uchun zarur moliyaviy resurslarni oshirish va homiylik hamda grant dasturlaridan foydalanishni kengaytirish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, zamonaviy geografiya xonasini tashkil etish talabalarning fazoviy tafakkuri, tahliliy fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Shu sababli geografiya xonasini zamonaviy didaktik va texnologik talablar asosida tashkil etish ta'lim sifatini oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lambert D. Teaching Geography 11–18: A Conceptual Approach. – Maidenhead: Open University Press, 2010. – 240 p.
2. Solem M., Gersmehl P., Gersmehl C. Spatial Thinking in Geography Education: Concepts, Tools, and Applications // Journal of Geography. – 2008. – Vol. 107, № 3. – P. 127–135.
3. Bednarz S. W. Geographic Information Systems: A Tool to Support Geography and Environmental Education? // GeoJournal. – 2004. – Vol. 60. – P. 191–199.
4. Kerski J. J. The Role of GIS in Digital Earth Education // International Journal of Digital Earth. – 2011. – Vol. 4, № 3. – P. 1–15.
5. Roberts M. Geography Through Enquiry: Approaches to Teaching and Learning in the Secondary School. – Sheffield: Geographical Association, 2013. – 320 p.
6. Edelson D. C. Learning-for-Use: A Framework for the Design of Technology-Supported Inquiry Activities // Journal of Research in Science Teaching. – 2001. – Vol. 38, № 3. – P. 355–385.
7. Downs R. M., Stea D. Maps in Minds: Reflections on Cognitive Mapping. – New York: Harper & Row, 1977. – 304 p.
8. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009. – 392 p.
9. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
10. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960. – 97 p.

11. Xo‘jayev B. X. Geografiya o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 256 b.
12. Qoriyev M. R. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ekologik savodxonligini oshirishda jonli tabiat burchaklarining o‘rni //Research Focus. – 2023. – T. 2. – №. 1. – С. 487-490.
13. Mirzohid Q., Muhlisa U. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga ekologik ta’lim va tarbiyani kuchaytirishning zarurati xususida. Iqtidorli talabalar ilmiy axborotnomasi //Namangan. – 2021. – T. 3. – С. 304-309.
14. Mamatqulov R. A. Geografiya ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2018. – 220 b.
15. Abdullayeva N. O. Ta’limda interfaol metodlardan foydalanish // Pedagogik ta’lim. – 2020. – № 3. – В. 45–50.
16. Ergasheva T. Maktabgacha ta’lim muassasalarida qiziqarli o‘yinlar yordamida ekologik ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari //Экономика и социум. – 2022. – №. 5-2 (92). – С. 84-87.
17. Sharipov Sh. S. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim samaradorligini oshirish // Xalq ta’limi. – 2019. – № 2. – В. 12–18.